

KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINING MOLIYAVIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Xalilov Bahromjon Bahodirovich

Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro.

“Iqtisodiyot” kafedrasida o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10558932>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda ular faoliyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** kredit, investitsiya, kichik biznes, moliyaviy barqarorlik, mikromuhit.*

ISSUES OF IMPROVING THE FINANCIAL MECHANISM OF SMALL BUSINESS ENTITIES

***Abstract.** This article describes the measures implemented in our country to financially support small business entities and develop their activities. Scientific proposals aimed at the development of small business and private entrepreneurship have also been developed.*

***Key words:** credit, investment, small business, financial stability, microenvironment.*

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО МЕХАНИЗМА СУБЪЕКТОВ МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

***Аннотация.** В данной статье описаны меры, реализуемые в нашей стране по финансовой поддержке субъектов малого предпринимательства и развитию их деятельности. Также разработаны научные предложения, направленные на развитие малого бизнеса и частного предпринимательства.*

***Ключевые слова:** кредит, инвестиции, малый бизнес, финансовая устойчивость, микросреда.*

Milliy iqtisodiyotda muhim o'rin egallab borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish hamda bu orqali ichki bozorni raqobatbardosh, sifatli va eksportbop mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda buning asosida aholi daromadlarini ko'paytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda, bu soha davlat byudjetiga soliq to'lov tushumlari hajmining ko'payishi va iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichi hisoblangan yalpi ichki mahsulot salmog'ining oshishiga asosiy turtki bo'lmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati jamiyatimizdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikning tayanchiga hamda asosiy kuchiga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohatlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank - moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Mamlakatimizning iqtisodiy islohotlarini bosqichlarida iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilmasida tub o'zgarishlarga asos

solishdan iborat g'oyat muhim masala bu tadbirkorlik va xususiy biznesni tashkil etish va rivojlantirishdir.

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «milliy iqtisodiyotning mutanosibli va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish»¹ muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berildi.

Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi, xususan, milliy iqtisodiyotning mutanosibli va barqarorligini ta'minlash unda faoliyat yuritayotgan sub'ektlar moliyaviy barqarorligini oshirishni talab qiladi. Yuqoridagi vazifalarning ijrosi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari moliyaviy barqarorligini oshirish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o'zni tobora mustahkamlanib borayotganining o'zi iqtisodiyotimizning tarkibida bo'layotgan ijobiy o'zgarishlardan dalolat beradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2010 yildagi 31 foizdan bugungi kunda 59,4 foizga etdi yoki qariyb 2 barobar oshdi. Ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98,1 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 78 foizdan ortig'i mazkur tarmoqda mehnat qilmoqda.

2022 yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 34,7 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 98,1 %, qurilishda - 66,6 %, investitsiyada - 34,9 %, savdoda - 86,3 %, eksportda - 26,5 %, importda - 55,8 % va xizmatlar sohasidagi - 55,2 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

Ana shu raqamlardan ko'rinib turibdiki, kichik biznes shaklan kichik bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash muammosini hal etish va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda tobora katta rol o'ynamoqda.

Xususiy mulkni, tadbirkorlik sub'ektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan tizimli islohotlarni davom ettirilishi tufayli 2022 yilda iqtisodiyotning ushbu sektorida barqaror rivojlanishi qayd etildi.

Qulay ishbilarmonlik muhitining yaratilishi, faol investitsiya siyosatining yuritilishi, shuningdek eksport salohiyatini kengaytirishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar 2022 yil mobaynida kichik biznesning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari ijobiy dinamikasini ta'minladi.

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi eng ko'p Jizzax (84,3 %), Samarqand (80,0 %), Buxoro (79,8 %), Surxondaryo (79,4 %), va Namangan (79,0 %) viloyatlarida tashkil etdi. Navoiy viloyatida ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda va 42,4 % ga teng, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa 54,3 %ni tashkil etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. PF-4947-son, 2017 yil 7 fevral. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 y., 6-son, 70-modda.

Bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirishning ahamiyati benihoya katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi; ikkinchidan, o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va pirovardida aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi; uchinchidan, kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi; to'rtinchidan, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnika bazasini yangilaydi va texnik qayta kurollantiradi; beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi va h. k.

2022 yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari kreditmoliyaviy jihatdan faol qo'llab-quvvatlandi. 2022 yilda iqtisodiyotning ushbu sektoriga yo'naltirilgan investitsiyalar 37504,7 mlrd. so'mni respublikadagi barcha investitsiyalardagi ulushi 34,9%ni tashkil etdi. Jami jalb etilgan investitsiyalar hajmi 2021 yilga nisbatan 20,4 foizga oshgan. Birinchi navbatda, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlaridagi kichik korxonalarni rivojlantirish bo'yicha yangi investitsiya loyihalarini kreditlash hajmi kengaytirildi.

Tahlil natijasiga asosan O'zbekiston hududlarida 2022 yilda faoliyat yuritayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni jami 6960 tani tashkil etgan. Shu jumladan, ularni asosiy qismi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, ularning soni 4394 tani tashkil etadi. Lekin, hozir O'zbekistonda investitsiyalash uchun barqaror salohiyatga ega bo'lgan mintaqalarning aksariyat qismida ularning ulushi kam hisoblanib Xorazm viloyatida 66 ta, Qashqadaryo viloyatida 72 ta, Navoiy viloyatida 90 ta, Sirdaryo viloyatida 103 tani tashkil etgan. Bu esa bir tomondan mahalliy hukumatning qulay investitsion mikromuhit yaratish bo'yicha sa'y-harakatlarining sustligi bilan baholansa ikkinchi tomondan loyihalarni amalga oshirishdagi mavjud muammolar bartaraf etilmasligi, mazkur hududlarda xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etishdagi asosiy to'siqlardan bo'lib qolishligi bilan baholanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida tijorat banklari tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar, jumladan, ushbu sektor sub'ektlarini kreditlash hajmlarining o'sishi ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirish va aholi bandligini oshirishga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida tijorat banklari tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar, jumladan, ushbu sektor sub'ektlarini kreditlash hajmlarining o'sishi ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirish va aholi bandligini oshirishga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Banklarning investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki yanada faollashib bormoqda. Banklar tomonidan ajratilayotgan investitsion kreditlar ustuvor ravishda iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish,

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish hamda yangi ish o'rinlari tashkil etishga qaratilgan dasturlar doirasidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

2022 yilda korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash maqsadlariga tijorat banklari tomonidan jami 38,8 trln. so'm yoki 2014 yildagiga nisbatan 4,5 barobar ko'p investitsion kreditlar ajratildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar, jumladan, ajratilayotgan kreditlar hajmining jadal sur'atlarda oshishida o'z aksini topmoqda.

Mamlakatimizda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining o'rni beqiyosdir. Xususan, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi barqaror ko'rsatkichni tashkil etmoqda.

Bunda ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar, jumladan, ajratilayotgan kreditlar hajmining jadal sur'atlarda oshishi ham muhim omil bo'lmoqda.

2022 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar miqdori 2021 yilga nisbatan 1,6 barobardan ziyodga oshib, qariyb 30,6 trln. so'mni, shundan mikrokreditlar hajmi 1,5 barobarga ortib, 6,2 trln. so'mdan ortiqni tashkil etdi.

Xususan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 668,4 mlrd. so'm, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 3561,7 mlrd. so'm, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga 6 547,8 mlrd.so'm, aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun 1748,5 mlrd. so'm, xorijiy kredit liniyalari hisobidan 1 039,3 mln. AQSh dollari miqdorida kredit mablag'lari ajratildi. Shu bilan birga, «Mikrokreditbank» ATB tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 437,6 mlrd. so'm miqdorida yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 1,2 barobarga ko'p mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatildi.

Mamlakatimizda kichik tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlantirishga qaratilgan moliya-kredit tizimining boshqa mexanizmlari bilan bir vaqtda qo'llanilgan, soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soliq majburiyatlari bo'yicha hisob-kitoblarni kamaytirishga xizmat qilishi bilan birga, soliq idoralarda soliq ishini yuritishni ham yengillashtirdi. Keyingi yillarda kichik biznes sub'ektlari uchun yaratilgan sharoit natijasida mazkur tarmoqning mamlakat

YaIMdagi salmog'ining ortishiga qulay zamin yaratmoqda. Bunday natija birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan doimiy qo'llabquvvatlanayotgani samarasidir. Bundan tashqari, soliqqa tortish amaliyotida mazkur sub'ektlar zimmasidan soliq yukining optimal darajasini aniqlash masalasi dolzarb bo'lib, davlat soliqlar orqali ular faoliyatini cheklashi yoki maqsadli tarzda rag'batlantirishi mumkin. Bu esa amalda kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortishda davlat tomonidan rag'batlantirishni anglatadi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritilayotganiga qaramay, uning imkoniyatlaridan hali to'liq foydalanilmagan jihatlar ham mavjud. Jumladan, mamlakatimizda kichik biznes sub'ektlari sonining jadal sur'atlar bilan o'sishiga qaramay, hali ularning etarli darajaga erishmaganligi, ayniqsa, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarida u qadar katta salmoqqa ega emasligi mazkur soha imkoniyatlaridan to'liq foydalanmayotganligini ko'rsatadi. Iqtisodiyotda kichik biznes sub'ektlari salmog'ini oshirish ma'lum chegaralarga ega.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida qo'yidagi chora tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

–mamlakatimiz va uning hududlarida yanada qulay biznes muhiti yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan qonun

xujjatlarini takomillashtirish;

–xususiy tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, davlatning boshqaruv funksiyalari va belgilangan me'yorlarni qisqartirish;

–kichik biznes sub'ektlarining moliya-kredit va xomashyo resurslaridan, ular ishlab chiqargan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishni ta'minlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tatbiq etish;

–kichik korxonalarini tashkil qilish hamda kichik korxonalar va tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish tartib-qoidalarini yanada soddalashtirish;

–kichik biznes sub'ektlarini qurish va ularni muxandislik kommunikatsiya tarmoqlari – energiya va gaz ta'minoti, suv va issiqlik ta'minoti hamda boshqa tarmoqlarga ulanishi bo'yicha shart-sharoitlarni yaxshilash va muddatlarini qisqartirish.

REFERENCES

1. Shadiyev, A. K. (2023). Stages of Development of The Digital Economy in Uzbekistan and Future Plans. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(12), 333-340.
2. Shadiyev, A. (2022). O'QUV EKSKURSIYASI-TURIZMNI O 'QITISHNING INNOVATSION USULI SIFATIDA. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 13(13).
3. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). “РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ” ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
4. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 582-586.
5. Bahodirovich, K. B. (2023). EVOLUTION OF THE AUDITING PROFESSION IN THE SMART MACHINE AGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 450-454.
6. Khalilov Bahromjon Bahodirovich. (2023). The International Financial Reporting Standards (IFRS) Mean to Businesses and Investors in Uzbekistan. *Miasto Przyszłości*, 42, 746–750.
7. Raxmonqulova, N. (2023). DEVELOPMENT STRATEGY IN THE DEVELOPMENT OF THE REGIONAL ECONOMY. *Modern Science and Research*, 2(12), 301-305.
8. Abdulloev, A. J., & Rakhmankulova, N. O. THEORETICAL ASPECTS OF THE INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP CONCEPT.
9. Sh, Y. D., & Rakhmanqulova, N. O. (2021). XUSUSIY SHERIKCHILIK VA TURIZM KLASTERI SOHASIDAGI TADBIRKORLIK RIVOJIDA DAVLATNING O'RNI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 73-76.

10. Явмутов, Д. Ш., & Рахманкулова, Н. О. (2021). РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 23-28.
11. Рахманкулова, Н. (2023). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕГИОНАЛЬНОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 36, 168-170.
12. Sodiqova, N. (2023). A POLITICAL ECONOMY ANALYSIS OF ECONOMIC SECURITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 559–568.
13. To'rayevna, S. N. (2023). DEMOKRATIYA VA IQTISODIYOT O'RTASIDAGI MUNOSABAT" SIYOSIY SHAXS" NAZARIDAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 387-394.
14. To'rayevna, S. N. (2023). YETAKCHILIK USLUBI SIFATIDA MURABIYOTDAN FOYDALANISH MENEJERLARNI TAYYORLASH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 399-408.
15. Toshov, M. (2023). FORMATION OF PRINCIPLES HR (HUMAN RESOURCE) BASED ON KEY INDICATORS (KPI). *Modern Science and Research*, 2(12), 477–482.
16. Toshov, M. (2023). CREATIVE ECONOMY: ESSENCE AND STRUCTURE. *Modern Science and Research*, 2(12), 499-505.
17. Toshov, M. (2023). HR BOSHQARMASIDA KPI TIZIMI. *Modern Science and Research*, 2(12), 470–476.
18. Очилов, Ш. Б., & Жумаева, З. К. (2017). Основные направления развития инноваций в республике Узбекистан. *Инновационное развитие*, (6), 45-47.
19. Жумаева, З. К., & Тошев, Ф. З. (2017). Пути дальнейшего совершенствования привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. *Инновационное развитие*, (4), 66-68.
20. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 517-520.
21. Nargiza, N. (2023). THE ROLE OF PROPERTY RELATIONS IN SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(12), 889–893.
22. Ibodulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 321-325.
23. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.
24. Ikromov, E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107–1111.
25. Jumayeva, Z. (2023). BASICS OF NATIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 2(12), 296–300.
26. Bustonovna, J. Z. (2023). PECULIARITIES OF THE AGRICULTURAL ECONOMY IN THE COUNTRIES OF THE EUROPEAN UNION. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 1256-1260.
27. Abidovna, A. S. (2023). MONTE CARLO MODELING AND ITS PECULIARITIES IN THE IMPLEMENTATION OF MARKETING ANALYSIS IN THE ACTIVITIES OF THE ENTERPRISE. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 375-380.

28. Abidovna, A. S. (2023). PRIORITY DIRECTIONS OF ANALYSIS OF CHANNELS OF PROMOTION OF THE MAIN ACTIVITY OF THE ENTERPRISE AND SEPARATE COMMUNICATION PROGRAMS. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 369-374.